

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2023
MAXSUS SON

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.A.Ganiyeva	
O'zbek va ingliz tillaridagi kelasi zamon shakllarining polifunksionalligi	6
G.S.Mirzayeva	
Lingvokulturmalar adabiy matnni ochib beruvchi kalit sifatida	10
S.N.Fazildinova	
The use of hyperbole in Alisher Navoi's works	14
Sh.T.Axmadjonova	
O'zbek tilshunosligida nutq uslublarining o'rganilish talqini	17
D.S.Usmonova	
Exploring values through phraseological units: a study of axiology in language	20
D.S.Usmonova, K.U.Davlyatova	
Gender features of children's animation and emerging translation challenges	24
N.R.Maxmudova	
O'zbek va jahon tilshunosligida ornitonimlarning o'rganilishi xususida	28
M.Saminjonov	
Rasmiy-jamoaviy qasamlar	31
I.M.Jo'rayev	
Qadimiy qadriyatlar	37
D.R.Ubaydullayeva	
Ingliz va o'zbek tillarida shart komponentli gipotaksemlarning struktural-semantik jihatlari qiyosiy tadqiqi	41
N.Q.Adamboeva	
Ingliz tili badiiy asarlaridagi xushmuomalalik kategoriyasining maksimalari	49
Z.M.Dadahonova	
Components of knowledge control	53
L.Teshebayeva	
O'zbek va ingliz ertaklarida mifonim va spellonimlar	56
Ш.М.Артикова	
Интегральные и дифференциальные признаки тавтологии и плеоназма	60
M.M.Nurmatova	
Paralingvistika jonli muloqot tarjimoni sifatida	66
S.I.Quziyev	
Oliy ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirilgan chet tilini o'qitishning xususiyatlari	70
T.Z.Ismonova	
Problems and solutions of grammar translation method	76
N.A.Komilova	
Zamonaviy tilshunoslikda gender nazariyasi asoslari	80
D.X.Madazizova	
The significance of text and discourse in enhancing communicative competence	83
S.A.Yusupova	
Morphemic units expressing honour in different system languages	86
N.Sidikova	
Stevan Sveygning "Noma'lum ayol maktubi" hikoyasida ayol ruhiyati tasviri	91
Sh.X.Nuritdinova	
Nemis va o'zbek tillarida kelishik kategoriyasi tipologiyasi	94
N.K.Abbasova, N.A.Abdullaeva	
Semantic analysis of english phrasal verbs	98
B.A.Mukhtorova	
The "Concept" in linguistics	102
R.A.Ortiqov	
Ulug'bek hamdamning "Ota" asaridagi monologlar tahlili	106
Sh.O.Abdiloyev	
Zoonim frazeologizmlar xalq tarixi va madaniyati in'ikosi	110

QADIMIY QADRIYATLAR

ANCIENT VALUES

ДРЕВНИЕ ЦЕННОСТИ

Islombek Jo'rayev Mamasodikovich¹¹Farg'ona davlat universiteti ingliz tili kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya

Dunyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy tarixi aks etgan adabiy manbalarga ko'z tashlar ekanmiz, biz unda ijtimoiy tengsizlik, inson erkiga bepisandlik, ikki jins vakillariga munosabatda adolatsizlik singari muammolarni kuzatishimiz mumkin. Oila masalasi ham, maishiy turmush ham, shaxs va jamiyat muammolari ham ajdodlarimizning ijtimoiy voqelikka munosabati aks etgan rivoyatlarda, asotirlarda o'z ifodasini topgan. Shuningdek, asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga yetkazib kelinayotgan epos – xalq dostonlarida ham oila, maishiy turmush muammolari ijtimoiy hayot fonida akslantirilganiga guvoh bo'lamiz. Biror xalq manfaati, millat taraqqiyoti uchun bel bog'lagan adabiy qahramonlar, eng avvalo, oila muhitida kamolga yetadilar, maishiy turmush sinovlarida toblanadilar. Shu tariqa ular kelguvda amalga oshiriladigan ulug'vor yumushlar, olamshumul vazifalar adosiga shaylanadilar. Xotin-qizlar bola tarbiyasi va oilaviy yumushlar bilan bir qatorda, vatan mudofaasi va el-yurt farovonligi yo'lida ham jonbozlik ko'rsatib kelganlar. Ularning shu tarzda xilma-xil shaxsiy va ijtimoiy faoliyati xalq og'zaki poetik ijodida, ayniqsa, dostonlarda keng va atroflicha aks etgan. Shuning uchun o'zbek xalq og'zaki poetik ijodida ajdodlarimizning turmush tarzi, xususan, xotin-qizlarning sermashaqqat hayoti haqida ma'yan tasavvur beruvchi lavhalar ko'plab uchraydi. Maqolada xalq dostonlari asosida oilaviy qadriyatlar, milliy xususiyatlar, jamiyat ravnaqining omillari tahlilga tortilgan.

Аннотация

Глядя на литературные источники, отражающие общественно-политическую историю народов мира, мы можем наблюдать такие проблемы, как социальное неравенство, неуважение к человеческой воле, несправедливость в отношении представителей обоих полов. Семейные дела, бытовой быт, личные и социальные проблемы отражены в повествованиях и легендах, отражающих отношение наших предков к социальной действительности. Также мы можем стать свидетелями того, что проблемы семейно-бытовой жизни отражаются на фоне общественной жизни в былинах — народных эпосах, которые передавались от предков к поколениям. Литературные герои, стремящиеся к благу нации и развитию нации, прежде всего взрослеют в семейной среде и переносят испытания повседневной жизни. Тем самым они будут подготовлены к грандиозным работам и универсальным задачам, которые им предстоит осуществить в будущем. Помимо воспитания детей и домашних дел, женщины также активно занимались защитой Родины и благополучия нации. Их разнообразная личная и общественная деятельность широко и всесторонне отражена в народных устно-поэтических произведениях, особенно в былинах. Именно поэтому в узбекской народной устной поэзии немало сцен, дающих определенное представление об образе жизни наших предков, в частности, о трудовой жизни женщин. В статье на основе народного эпоса анализируются семейные ценности, национальные особенности, факторы общественного развития.

Abstract

Looking at the literary sources that reflect the socio-political history of the peoples of the world, we can observe such problems as social inequality and injustice in the treatment of representatives of both genders. Family matters, domestic life, personal and social problems are expressed in the narratives and legends that reflect the attitude of our ancestors to social reality. Also, we can witness that the problems of family and household life are reflected in the background of social life in epics — folk epics, which have been handed down from ancestors to generations. Literary heroes who are committed to the benefit of a nation and the development of the nation, first of all, grow up in the family environment and endure the trials of everyday life. In this way, they will be prepared for the grandiose works and universal tasks that will be carried out in the future. In addition to raising children and family chores, women have also been active in the defense of the homeland and the well-being of the nation. Their various personal and social activities are widely and comprehensively reflected in folk oral poetic works, especially in epics. That's why there are many scenes in Uzbek folk oral poetry that give a certain idea about the lifestyle of our ancestors, in particular, the hard-working life of women. The article analyzes family values, national characteristics, factors of social development based on folk epics.

Kalit so'zlar: Tarixiy voqelik, shaxs tarbiyasi, maishiy turmush, oilaviy muhit, ijtimoiy hayot, ma'naviy-axloqiy yetuklik, oila va jamiyat.

Ключевые слова: Историческая действительность, воспитание личности, бытовая жизнь, семейная среда, социальная жизнь, духовно-нравственная зрелость, семья и общество.

Key words: Historical reality, personal education, household life, family environment, social life, spiritual and moral maturity, family and society.

KIRISH

Ko'pgina tarixiy manbalar Sharq mamlakatlarining xotin-qizlari nafaqat oilada, balki ijtimoiy-siyosiy hayotda ham muhim rol o'ynaganliklarini tasdiqlaydi. Darhaqiqat, qadimda ayollar davlat boshqaruvida, siyosiy tadbirlarda faol ishtirok etganlar, o'zni kelganda hukm va farmonlar chiqarganlar, qo'shni davlat elchilarini qabul qilganlar. Amir Temur saroyida elchi bo'lib turgan Klavixo elchilar va xorijiy mehmonlarni qabul qilish marosimida Saroymulkxonim ham ishtirok

etganligini yozib qoldirgan. Eron hukmdori Tahmosp ovga chiqqanda singlisini ham oq tuyaga mindirib, birga olib yurgan. Malikalar nomidagi madrasa va masjidlar hanuzgacha saqlanib kelayotganligi ham fikrimiz dalilidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Ayollar bo'lg'usi xoqon va hukmdorlarning onasi bo'lganliklari uchun ham ularning mavqeiga katta e'tibor berganlar. Bu tasavvurlar «Alpomish» dostonida Barchin va Qaldirg'och obrazlari orqali yaxshi ochib berilgan. Qaldirg'och – Alpomishning singlisi bo'libgina qolmay, balki unga dono maslahatlar beruvchi, kerak bo'lsa, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi hamdir. Qaldirg'ochoyimning Alpomishga qarata:

Mard yigitning yori tolosh bo'lami,
Er yigitning yorin qalmoq olami?..[1.74]

deya aytgan so'zlari uni jasoratlar ko'rsatish uchun yo'lga otlantiradi.

«Alpomish» dostonining falsafiy mazmunidan ko'rinib turibdiki, Hakimbek o'z xalqini birlashtirish uchun jo'natilgan va zimmasiga ilohiy vazifa yuklatilgan Alpdird. Uning zimmasidagi markazlashgan davlat barpo etish, millatni birlashtirish, ijtimoiy ravnaqni ta'minlash, eng avvalo, sevgi-sadoqatga asoslangan mustahkam oila barpo etishdan boshlanadi. Alplik qonuniyatiga ko'ra ilohiy vazifa yuklatilgan Alpni himoya etish, zarur paytda yo'l-yo'riq ko'rsatish va ko'mak berish uchun unga hamisha homiy ruhlar ko'mak beradi. Dostondagi Barchin, Qaldirg'och, Surxayil kampir, Qultoy, Boychibor kabi obrazlar ham homiy ruhlar haqidagi qadim tasavvurlarning badiiy ifodasidir.

Alpomish Barchinning ruhi bilan tushida uchrashib, uning qo'lidan may ichishida ham ramziylik bor. Alpomishning qalmoq yurtiga safari ham ana shu tush bilan boshlanadi.

«Alpomish» dostonida Barchinning o'z taqdiri uchun kurashi, zarur paytda otasiga ham maslahat berishi, Alpomishning ko'rsatgan jasoratlariga teng sherik bo'lishi matriarxat, ya'ni ona urug'chilik tizimi bilan bog'liq tasavvurlar doston syujetida saqlanib qolganligidan, bu esa dostonning mifologik qatlami juda qadimiy ekanligidan dalolat bersa, ikkinchidan bu ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotda ham faol bo'lganliklarini anglatadi.

Dostonning birinchi qismida Alpomish qalmoq yurtiga kelib, Qorajonga duch kelganda, uning savoliga javob berib shunday deydi:

Meni bilsang Qo'ng'irotda elning to'raasi,
Ko'kqamish ko'lidan suqsur uchurdim,
Suqsurni izlagan lochin bo'laman.[1.74]

Timsoliy ma'no kashf etgan Alpomishning bu e'tirofida, eng avvalo, o'zi izlab kelayotgan yori – Barchinga bo'lgan so'nmas muhabbati va hurmati o'z ifodasini topgan. Alpomish izlab kelayotgan yori – Barchin ham unga munosib. «Barchin ham barkamol, bo'yi yetgan, har yag'rini o'n besh qarich keladi. Parning nazari bilan paydo bo'lgan, bu ham alp».[1.40]

Ajdodlarimizning qadim tasavvuriga ko'ra, hamma narsa juft yaratilgan. Juftlik bo'lmasa, ko'payish, taraqqiyot, davomiylik ham bo'lmaydi. Barchin ilohiy Alpning ramziy ma'nodagi yarmidir. Alpomishga yuklatilgan ilohiy missiya Alplikning ikkita qismi birlashganda, ikkita yarim bir bo'lgach, amalga oshadi. Shuning uchun ham dostonidagi voqelik Alpomish va Barchinning muhabbati va oila qurishi ustiga qurilgan.

Barchin timsolida oila qadriyatlarining ham, jamiyat taraqqiyotining ham omillarini akslantiruvchi xislatlar mujassamlashgan. Bu obrazda xalq idealida bo'lgan mard, jasur, jangovar, go'zal va oqila, jismonan va ma'naviy barkamol ayollar haqida qadim tasavvurlar, insonparvarlik, yurtga muhabbat, yorga sadoqat kabi eng ulug' xislatlar o'z ifodasini topgan. Barchin o'ziga uylanmoqchi bo'lgan qalmoqlarga qarata:

Oti Alpomish yorim bordir,
Chakkasida shunqorim bordir.
Elda Zo'raborim bordir,
Qo'ng'irotda qaysarim bordir.

deya javob berar ekan, o'z sadoqati, mehr muhabbatini namoyish etadiki, bunday o'rinlar dostonida talaygina. Boshqa bir o'rinda esa Barchin:

Erkak libosini o'zim kiyarman.
Bor kuchimni bilagimga jiyarman,
Qirq mingingni bir deb sanab qirarman,[1.56]

deya o'z mardligi va jasurligini namoyish etadi. Barchin dostonning yana boshqa bir joyida:

Yiqolmasang, to'ram, navbat tilayin,
Erkak libosini o'zim kiyayin.
Bor ko'chimni bilagimga jiyayin.
Bu qalmoqni pora-pora qilayin.[1.153]

deya Alpomishga qilgan murojaatida qadim magik tushunchalar o'z ifodasini topgan. Shu bilan birga, suyakli yori uchun xavotirlik, o'z yurtining sha'ni, millatining g'ururi yo'lida qayg'urish ohanglari ham mujassamlashgan.

MUHOKAMA

Qadimiy tasavvurlarga ko'ra so'z qudrati, ya'ni so'z magiyasi orqali kishilarga, voqelikka ta'sir o'tkazish mumkin deb hisoblangan. So'z magiyasining izlari xalq dostonlarida yaxshi saqlanib qolgan. Barchin ham shartlarni bajarayotgan Alpomishga o'zining ana shunday magik qudrati bilan ko'mak berib turadi.

«Alpomish» dostonidagi ayollar obrazi tahlili shuni ko'rsatadiki, dostonidagi ayol obrazlari va bu obrazlar bilan bog'liq qadim tasavvurlar faqat badiiy to'qima emas, balki o'tmish hayotimiz tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ajododlarimizning, ayolga, oilaga ehtiromi naqadar ulug'ligidan, ayollarning oilada, jamiyatda tutgan o'rni, mavqei nechog'lik yuksak bo'lganligidan darak beradi.

“Alpomish” dostonida ham oila baxti, millatning, yurtning or-nomusi, shon-u shavkati uchun kurash g'oyalarining ifodalanishida ayol obrazlar alohida ahamiyat kasb etadi. Barchinning qalmoqlarga kelin bo'lishini eshitgan Alpomish yerga bag'rini berib yotganda Qaldirg'och uni yo'lga soladi. Yoki kurash maydonida hammani betoqat qilgan mardlarga qarab Barchinning o'zim olishaymi degan gapidan ori kelgan Alpomish bir hamla bilan raqibini yer tishlatadi. Demak qahramonning mardligi, jasorati, kuch-qudrati kabi fazilatlarining ochilishida ayollar o'rni betakror ekanligini anglash qiyin emas.

Barchin obrazi uzoq o'tmish ijtimoiy hyotida o'zining real ildizlariga ega. Patriarxal-urug'chilik jamiyatida, chorvador-ko'chmanchilik hayotida xotin qizlarning oila va turmushga nisbatan mustaqil bo'lishlari, ularning dastlab erkaklar bilan barobar, keyinroq ayrim hollarda urushlar va jang-u jadallarda ishtirok etishlari bahodir qiz epik obrazi yaratilishining real shart-sharoitlari hisoblanadi. Bunga “Alpomish” dostonidagi Barchinning jangovarligi tasvirlangan lavhalar, alplarga qo'ygan shartlarini misol keltirish mumkin.

NATIJALAR

Shunday qilib, Barchin jangovar, bahodir, alp qiz, Alpomishga sadoqatli yor, oila va urug' nomusi uchun faol kurashuvchi ona obrazidir. Bu obrazda mehnatkash xalqning xotin-qizlarga nisbatan samimiy munosabati, juda katta e'zoz va hurmati mujassamlashgan, ayollar yuksak insoniy qudrat va shon-sharafga ega ekanligi baralla kuylangan.

Dostonidagi yana bir e'tiborli obrazlardan biri Qaldirg'ochdir. Alpomishni qahramonliklarga undagan Qaldirg'och obrazida yangasi Barchinga nisbatan hurmati, chuqur ma'naviy dunyosi oqko'ngil va sofdilligi, akasiga, qarindosh-urug'lariga mehr-u shafqati yorqin ifodalangan. Dostonida qalmoqlarning qo'lida talashda qolgan Barchinni qutqarish uchun safarga o'tlangan Alpomishga nasihat ham aynan Qaldirg'och tilidan berilishi bejiz emas:

Bir nechuk nomardga ko'ngil bermagil,
Nodon ko'ngling har xayolga bo'lmagin,
Ko'p yashagin, ko'p yilgacha o'lmagin,
Yo'llda nomardlarni hamroh qilmagin.

Barchin va Qaldirg'och obrazlari “Alpomish” dostonida har jihatdan mukammal tasvirlangan.

XULOSA

Atoqli rus olimi Tolstov “xotin-qizlar o'zbek xalq eposida asosiy o'rin tutadi...” deganida mutlaqo haq edi. Chunki xalq dostonlari eng avvalo, muayyan xalqning turmush tarzidan vujudga keladi. Xalq dostonlarida yuksak badiiy ifodasini topgan qadriyatlar, milliy xususiyatlar, ijtimoiy falsafiy g'oyalarni anglab yetishimizda shaxs-oila-jamiyat munosabatlari juda qadimdan shakllangan noyob tizim ekanligini nazardan qochirmasligimiz lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alpomish dostoni. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. Nashrga tayyorlovchilar: H.Zarifov va To'ra Mirzaev. –T., 1998.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –T.: 1980.
3. Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik asoslari va mezonlari. –T., 2004.

4. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari.–T.: Kamalak nashriyoti, 2016.
5. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. –T.: Fan nashriyoti,2009.
6. Jurayev, I.M. (2022). Social and living factors of personal crisis. *European Multidisciplinary Journal Of Modern Science, Special Issue: Use of Modern Innovation on Integrated Research*
7. Jurayev, I.M. (2022). Old views of family and social relations. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, (Vol. 3 No. 03,pp.276-278).
8. Jurayev, I.M. (2020). Ferdowsi And Uzbek Literature: Household And Social Issues. *ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal*, (Vol.10, Issue 11, pp. 1345-1349).
9. Жўраев, И. (2022). Маиший муаммолар ибтидоси. "Issues Of Philological Education: Problem Issues And Their Innovative Solutions" Collection Of Materials Of The International Conference,(1), 282-284.
10. Жўраев, И., Жўраев, Ҳ. (2022). Оила қисмати ва жамият тақдири. "Issues Of Philological Education: Problem Issues And Their Innovative Solutions" Collection Of Materials Of The International Conference,(1), 163-165.
11. Juraev, I.M., Juraev, H.A. (2022). "Bygone Days" And Lessons Of The Past. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, (Vol.13, pp.12-15).
12. Жўраев, И. (2022). Танглиқдан тенгликкача. *Science and Innovation International Scientific Journal* (Vol. 1, ISSUE 8, UIF-2022: 8.2, pp. 1213-1216).
13. I.M. Jurayev. (2023). THE FORMATION OF CONCEPTS ABOUT FAMILY IN MYTHOLOGICAL IMAGINATIONS. В *International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS)* (Выпуск 06, сс. 287–291). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10059440>.
14. I.M. Jurayev. (2023). ALISHER NAVOI ABOUT THE DUTIES AND RESPONSIBILITIES OF PARENTS [Data set]. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10057548>